

## О'QITISH VA O'RGANISH JARAYONING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА PSYCHOLOGICAL FEATURES OF TEACHING AND LEARNING PROCESS

*Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi*  
Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi  
[esemuratovagulbanu@gmail.com](mailto:esemuratovagulbanu@gmail.com)  
+998934861835

*Saparova Eldora Tajimuratovna*  
Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi  
[saparovaeldora@gmail.com](mailto:saparovaeldora@gmail.com)  
+998885072512

*Jumaniyazova Sarbinaz Uzaqbay qizi*  
Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Amaliy Psixologiya 4-kurs talabasi  
[sarbinazjumaniyazov@gmail.com](mailto:sarbinazjumaniyazov@gmail.com)  
+998935571210

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qitish jarayoni va uning turlari, bu jarayonda ishtirioq etuvchi shaxslar o'quvchi va oqituvchining psixologik xususiyatlari haqida so'z yuritildi.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается об учебном процессе и его видах, участниках этого процесса и психологических особенностях ученика и учителя.

**Annotation:** This article describes the educational process and its types, the participants in this process and the psychological characteristics of the student and teacher.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, o'quv jarayoni, o'rganish, o'quv faoliyati, talim, assotsiatsiya, analiz, sintez, ijod, taqlid, motivatsiya, xayol, tafakkur, diqqat.

**Ключевые слова:** учитель, учебный процесс, обучение, учебная деятельность, обучение, объединение, анализ, синтез, творчество, подражание, мотивация, воображение, мышление, внимание.

**Key words:** teacher, educational process, learning, educational activity, education, association, analysis, synthesis, creativity, imitation, motivation, imagination, thinking, attention.

1997 yilda qabul qilingan "**Ta'lim to'g'risida**"gi Qonun va "**Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida**" shaxs kamoloti asosiy masala sifatida e'tirof etilgan. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashkil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi", degan edilar.

Maktab jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri. Maktab jamiyatning buguni emas, balki kelajakka yo'naltirilgan rivojini belgilaydi. Maktabning maqsadi ta'lim va tarbiya berishdir. Insonning hayotiy tajribani bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tariqasida o'zlashtiradigan bir necha tushunchalar mavjud. Bu o'quv faoliyati, ta'lim, o'qish va o'rganishdir. Bunday faoliyat unga atrof-muhitga moslashishga, o'zining asosiy ehtiyojlari, shuningdek, aqliy o'sish va shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

**O'quv faoliyati** bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir. Ta'lim haqida gapirilganda o'qituvchining ta'lim jarayonidagi maxsus funktsiyalariga e'tibor qaratiladi. Bunda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan o'quv harakatlari nazarda tutiladi.

**O'quv faoliyati** natijasida inson yangi bilim, ko'nikma va malakalar egallaydi, yoki mavjudlarini o'zgartiradi, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan jarayondir.

**Ta'lim**- u o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi o'quv faoliyatidan iborat bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni uzatish jarayonidir, hayotiy tajribani o'qituvchidan o'quvchiga uzatishdir

**O'qish** – ham o'quv faoliyatiga taaluqli bo'lib, lekin ko'proq bu tushuncha ishlatilganda o'quv faoliyatida o'quvchiga tegishli faoliyat nazarda tutiladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan uch tushuncha ham o'quv faoliyati mazmuniga taaluqlidir. O'qishning natijasi haqida gapirilganda o'rganish tushunchasidan foydalaniladi. Agar faoliyatning asosiy motivi sifatida bilishga qiziqish yoki individning psixologik taraqqiyoti nazarda tutilsa, o'quv faoliyati haqida gapiriladi. Agar motiv individning u yoki bu ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, "**o'rganish**" tushunchasidan foydalaniladi. Bunday yo'l-yo'lakay o'rganishga misol sifatida ma'lumotlarni ixtiyorsiz ravishda eslab qolish, o'quv maqsadlarini ko'zda tutmagan harakatlarni misol keltirishimiz mumkin. Ta'lim va o'qish – har doim ongli jarayonlardir, o'rganish esa ongsiz darajada ham ro'y berishi mumkin.

Ta'lim, o'qish va o'rganish orasidagi yana bir farq ma'lumotlarni o'zlashtirishga tayyorlik turli yosh davrlarida namoyon bo'ladi. O'rganishning elementar turlari imprinting, shartli reflektor va operant turlariga bola tug'ilishi bilan oq amalda tayyor bo'ladi. O'qish bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun ongli, maqsadga yo'naltirilgan qobiliyat sifatida bolada 4-5 yoshligida namoyon bo'ladi, mustaqil o'qishga tayyorlik maktabning birinchi sinflarida, 7-8 yosh atrofida vujudga keladi.

O'rganish jarayoni faoliyat sifatida quyidagi o'quv-intellektual mexanizmlar hisobiga amalga oshadi:

**1. Assotsiatsiyalarning shakllanishi.** Bu mexanizm alohida bilimlar orasida yoki tajriba qismlari o'rtasida vaqtinchalik bog'lanishlar o'rnatish asosida yotadi.

**2. Taqlid qilish.** Ko'nikma va malakalar shakllanishi uchun asos bo'ladi.

**3. Farqlash va umumlashtirish.** Tushunchalar shakllanishi bilan bog'liq.

**4. Insayt (taxmin).** Inson tomonidan qandaydir yangi informatsiyani qarab chiqish, o'tmish tajribadan ma'lum narsada noma'lumni ko'rishdir. Insayt bolaning intellekti rivojlanishi uchun kognitiv baza hisoblanadi.

**5. Ijod.** Yangi bilim, ko'nikma va malakalarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

O'rganishning muvafaqqiyati ko'p omillarga bog'liq, ular ichida quyidagi psixologik omillar ham muhimdir: o'quv faoliyati motivatsiyasi, bilish jarayonlari idrok, diqqat, xayol, xotira, tafakkur va nutqning ixtiyoriyligi, o'quvchilarda irodaviy va boshqa shaxs hislatlari: ma'suliyat, tirishqoqlik, maqsadga intiluvchanlik, intizomlilik, onglilik, tartiblilik va boshqalarning mavjudligi. O'quv faoliyati samaradorligining psixologik omillariga hamkorlikdagi faoliyatdagi insonlar bilan o'zaro ta'sir qila olish ko'nikmasi, o'qituvchilar va sinfdoshlari bilan, intellektual rivojlanganlik va boshqalar kiradi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganishga bo'lgan tayyorlik (ustanovka) muhim hisoblanadi, bunda o'quv vazifalarining o'qituvchi tomonidan qo'yilishi, o'quvchi tomonidan qabul qilinishi muhim bo'lib, bunda o'qituvchi o'rgatadi, o'quvchi o'rganadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.Г.Давлетшин ва бошқалар "Ёш даврлар ва педагогик психология" Т.ТДПУ. 2009;
2. Нишанова З.Т. Мустақил ижодий фикрлаш. –Т. Фан.2003;
3. Ш.А.Дустмухаммедова, З.Т.Нишанова, С.Х.Жалилова, Ш.К.Каримова, Ш.Т.Алимбаева "Ёш даврлар ва педагогик психология" Т. 2013.